

**BOLALARNI RIVOJLANISHIDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI**

*Teshaboyeva Odina Sharofuddinovna*

*Andijon viloyati Asaka tumani*

*32-DMTT psixologi*

Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan olib boriladigan o'yin turlari, bolalarning hayotida o'yin faoliyatining ahamiyati haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zi:** O'yin turlari, mayday qo'l matorikalarini, bola harakatlarini va psixik rivojlanishini o'stirish.

*“O'yin bola uchun o'yin emas voqelikdir” K.Ushinskiy*

Bolaning rivojlanishi va o'sishi kechayu-kunduz davom etadigan jarayondir. Bu rivojlanishda ularning psixologik xususiyatlarining ro'li katta. Yosh avlodning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish jarayonida o'yin faoliyatining o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, o'yin bola shaxsining hamma qirralarini ochadi, ruhiyatida yangi rivojlanish bosqichiga doir o'zgarishlarni yuz berishiga olib keladi. Shuning uchun psixologlar bu yoshdagi bolalarni psixologik rivojlanishida o'yinni yetakchi faoliyat deb hisoblaydi.

Bizga ma'lumki bolalarni har tamonlama: Aqliy, ahloqiy, estetik, jismoniy, psixik rivojlanishida o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan o'yinlarni tashkil etish, o'tkazish o'yin-mazmun mohiyatiga e'tibor berish juda zarur. Chunki bola o'yin davomida o'zi to'liq ishtirok etadi, fikrlaydi, tasavvur qiladi, bajaradi va ularni nutqida ifoda etadi. O'yin paytida bolaning kattalarga bevosita bog'liq bo'lmasligi, ko'proq mustaqillikga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

O'yinga bolalar o'z hohishlari bilan uyushadilar, mustaqil ishlaydilar, o'z niyatlarini, qiziqishlarini amalga oshiradilar. Bola o'yinni qanday tasavvur etsa, aynan shunday xotirasida saqlaydi. Hozirgi zamon maktabgacha tarbiya pedagogikasida o'yinga "Bolalar hayotini yo'lga qo'yish shakli" deb qaraladi. Bu jarayonda bola o'z atrofidagi do'stlari bilan muayyan munosabatlari yuzaga keladi, o'yin bolaning butun hayotini, shaxsiy faolligini, mustaqilligini namoyon qilishlari uchun imkoniyat beradi.

Shuning uchun pedagoglar o'yinni tanlaganda, boshqarayotganda, obrazlarga bo'lganda, bolaning yoshi, uning holati, harakteriga qarab taqsimlashi, ularning yutug'i, bilimi, faolligiga e'tibor berishi zarur. Kam gap, sekin, harakatlari sust, diqqati beqaror bolalarga iloji borichia o'yinga qiziqtirish uchun asosiy obrazlarini berish maqsadga muvofiqdir.

O'yin - bolaning jismonan o'stirishda, ma'naviy tafakkur, nutq, hayol, xotirani taraqqiy ettirishda, tevarak atrofdagi narsalarga e'tibor berish, bo'layotgan voqea -

hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va mustahkamlashda, bolaning hulq-atvorini tarbiyalashda, o'zini va atrofdagilarni hurmat qilishda, narsalarni qadriga yetishga o'rgatishga juda katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqatti ixtiyorsiz bo'lib, asta sekin ixtiyoriy diqqatga o'tadi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o'zi uchun qiziq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishga olib keladi. O'yin asosida bola biror narsani eslab qolish, ularni o'rinini topa olishi va eslash asosida xotirasi rivojlanadi. Bundan tashqari obrazlik-harakatli, mantiqiy tafakkurlari ham o'sadi. Maktab yoshiga kelib bolaning mantiqiy tafakkur elementlari shakllanadi va mantiqiy fikrlay oladi. Bolaning ijodiy qobiliyati o'sishi tafakkurni rivojlanishiga olib kelib ijodkorlik tuyg'ularini o'yinlar asosida ko'rsata oladi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bola shaxsining ijtimoiy yetuklik ko'nikmalarini shakllantirishga ta'siri katta. U o'yin imitatsiyasi va ro'lli o'yinlar orqali bolaning kattalar o'rtasidagi xulq-atvori va munosabatlarni me'yor bilan tanishadilar. Bu esa o'zini tutishi xuql-atvor uchun asos bo'ladi. Bu jarayonda atrofadgilar bilan aloqa o'rnatish, o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun asosiy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Bolalar bilan turli o'yinlar ya'ni: Sujetli-ro'lli o'yinlar, harakatli va didaktik o'yinlar, metodik o'yin va treninglar bola diqqatini rivojlantiradi, ko'rish, eshitish va nutq qobilatlarini o'stiradi, narsalarni taqqoslash va umumlashtirish, qiyoslashga o'rgatadi, umumiy tushunchalari rivojlanadi, mayda qo'l matorikalar va harakatlari rivojlanadi. Masalan: "Nima o'zgardi", "O'xshashini top", "Do'kon", "Kesma suratlar", "Ajoyib xaltacha", "Uy quramiz", "Ranglardan top", "Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni", "Nima hosil bo'ldi", "Uychada kim yashaydi", "Ertak yozamiz", "Arxitektor", "So'zlar juftini top", "Sehrli o'rmon" kabi o'yinlar bolalarni yakka va guruh bo'lib o'ynashlari uchun yaxshi natija beradi.

Lekin har bir o'yin jarayonida bolaning individual xususiyati, kayfiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunga e'tibor bermaslik bolaning psixikasiga yomon ta'sir qilishi mumkin.

Har bir o'yin orqali bolaga berilgan quvonch, shodlik daqiqasi uning hayotini yanada quvonchliroq, baxtliroq qiladi. Ulardagi quvonchni, ajoyib holatlarni ko'rish, undan bahramand bo'lish siz-u bizga nasib qilishi mumkin. Shunday ekan, kelinglar hammamiz birgalikda o'ynaylik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G.Jalolova: "Bolalarni maktabga tayyorlashda no-an'anaviy o'yinlardan foydalanish" Tashkent 2004
2. A.A. Turg'unov, D.SH.temirov: "Bolalarni maktabga psixologik tayyorlash" Tashkent 2020
3. R.G.Rahmonqulova: "Psixologlar uchun metodik qo'llanma" Tashkent 2016
4. O.SH.Teshaboyeva: "Inson ruhiyatini o'rganamiz"